

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESINIŃ
QARARI**

2023 - yil «29» - mart

101-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

“Nukus” Erkin iqtisodiy zonasi va “Nukus texnoparki” maxsus sanoat zonasi hududida investitsiya loyihalarini joylashtirish uchun elektron onlayn-auksionga chiqariladigan yer uchastkasining boshlang'ich narxi hamda har yilgi ijara to'lovi miqdorini belgilash haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-iyundagi “Maxsus iqtisodiy, kichik sanoat, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyati samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-153-son Farmoni va 2022-yil 6-iyuldagi “Qoraqalpog'iston Respublikasida “Nukus texnoparki” maxsus sanoat zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-306-son qarori hamda 2018-yil 21-dekabrda “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5600-son Farmoniga asos Nukus shahri “Nukus” EIZ va “Nukus texnoparki” MSZ tarkibiga kiruvchi hududlar yer fondi zaxirasi ixtiyoridagi yer maydonlaridan investitsiya loyihalarini joylashtirish uchun elektron onlayn-auksionga chiqariladigan yer uchastkasining boshlang'ich narxi hamda har yilgi ijara to'lovi miqdorini belgilash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-iyundagi “Maxsus iqtisodiy, kichik sanoat, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyati samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-153-son Farmoni va 2022-yil 6-iyuldagi “Qoraqalpog'iston Respublikasida “Nukus texnoparki” maxsus sanoat zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-306-son qarori hamda 2018-yil 21-dekabrda “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5600-son Farmoni ijro uchun qabul qilinsin.

2. “Nukus” Erkin iqtisodiy zonasining “Nukus” EIZ va “Nukus texnoparki”

MSZ hududida joylashtirish uchun taklif qilinadigan investitsiya loyihalarining investitsiya buyurtmanomalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-iyundagi “Maxsus iqtisodiy, kichik sanoat, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyati samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-153-son Farmoniga muvofiq tasdiqlanishi ta’minlansin.

3. “Nukus” Erkin iqtisodiy zonasi Direktsiyasi “Nukus” EIZ va “Nukus texnoparki” MSZ hududida joylashtirish uchun taklif qilinadigan investitsiya loyihalarini joylashtirish uchun yer uchastkalari «E-AUKSION» elektron savdo platformasi orqali elektron onlayn-auksionga joylashtirilishini ta’minlasin.

Bunda taklif qilinadigan investitsiya loyihalar Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 155-son qarori 2-ilovasi 15-bandiga asos, qurilish materiallari, mebel mahsulotlari, yengil sanoat va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha yer uchastkalarini joylashtirish nazarda tutilsin.

4. “Nukus” EIZ va “Nukus texnoparki” MSZ hududida joylashtirish uchun taklif qilinadigan investitsiya loyihalarni joylashtirish uchun yer uchastkalarini «E-AUKSION» elektron savdo platformasi elektron onlayn auksionga chiqarishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-avgust kungi “Qoraqalpog‘iston Respublikasida tadbirkorlik, innovatsion texnologiyalar va infratuzilmalarni jadal sur‘atlarda rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-213-son Farmoniga asosan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlari bo‘yicha yillik tasdiqlangan yer solig‘i stavkalaridan kelib chiqib yer uchastkalari yillik ijara miqdori har gektar uchun belgilangan summaning 50 % (ellik foiz) miqdorida belgilansin hamda yer uchastkasini elektron onlayn-auksionga chiqarishda yer uchastkasining boshlang‘ich narxini yillik tasdiqlangan yer solig‘i stavkalaridan kelib chiqib har gektar uchun belgilangan summaning 25 % (yigirma besh foiz) miqdorida belgilansin.

5. “Nukus” Erkin iqtisodiy zonasi Direktsiyasi investitsiya loyihalarini joylashtirish uchun ajratilgan yer maydonlaridan belgilangan maqsadda foydalanilmagan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi “Yer kodeksi”ning 36-moddasiga asosan tegishli choralar ko‘rish topshirilsin.

6. Belgilab qo‘yilsinki, investor tomonidan investitsiya va ijtimoiy majburiyatlar bajarilmagan taqdirda yer uchastkalariga bo‘lgan ijara huquqini bekor qilish investorning xarajatlari qoplanmagan holda amalga oshiriladi.

7. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2022-yil 14-noyabrdagi “Nukus” Erkin iqtisodiy zonasi va “Nukus texnoparki” maxsus sanoat

zonasi hududida investitsiya loyihalarini joylashtirish uchun elektron onlayn-auksionga chiqariladigan yer uchastkasining boshlang'ich narxi hamda har yilgi ijara to'lovi miqdorini belgilash haqida"gi 525-13-0-Q/22-son qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Axborot xizmatiga mazkur qarorni rasmiy manbalarda e'lon qilish vazifasi topshirilsin.

9. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (A.Bekmuratov) hamda Qoraqalpog'iston teleradiokompaniyasi (Q.Bekbauliev)ga mazkur qarorning maqsad va mazmunmohiyatini ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan internet jahon axborot tarmog'ida va ijtimoiy tarmoqlarda yoritilishi tavsiya etilsin.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisinig o'rinbosari A.Oteuliev zimmasiga yuklatilsin.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi Raisi**



F. Ermanov